UO‘K 94 (575.1)

JADID MUHIDDIN SHOHIMARDONOV FAOLIYATI VA QISMATI

O‘.Q. Ubaydullayev

Maqolada jadid taraqqiyparvarlardan biri – Muhiddin Shohimardonov faoliyati va taqdiri arxiv manbalari, davriy matbuot materiallari asosida ilk bor yoritilgan. M.Shohimardonov oilasining sovet hukumati tomonidan “xalq dushmani” ayblovi bilan ta’qibga olingani, barcha imtiyozlardan mahrum etilgani, Shohimardonov taqdiri oilasidan uzoq yillar sir tutilgani arxiv hujjatlari asosida ochiqlangan. M.Shohimardonovning ayblov ishi bo‘yicha tergovga jalb qilingan shaxslar haqida ma’lumotnoma – arxiv hujjatlaridan ayrimlari maqolaga ilova qilingan.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, “Milliy ittihod”, Muhiddin Shohimardonov, bolsheviklar partiyasi, milliy istiqlolchilik, mustamlaka, ayblovchi, sudlanuvchi, qatag‘on.*

В статье на основе архивных источников и материалов периодической печати рассматривается деятельность и трагическая судьба джадида-прогрессиста Мухиддина Шохимарданова, уроженца Медины, переселившегося с семьёй в Наманган. На документальном материале показаны репрессивные меры советского режима в отношении его семьи, обвинённой во «враждебности народу», а также длительное сокрытие сведений о его судьбе. Публикуются отдельные архивные следственные документы.

Ключевые слова: *джадидизм, национальное движение, Мухиддин Шохимарданов, советский режим, политические репрессии, архивные документы.*

Kirish

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Shahidlar xotirasi” xiyoboniga tashrifi vaqtida istiqlol uchun kurash olib borgan millat fidoyilari, jadid taraqqiyparvarlar faoliyati va merosini o‘rganish, ularning nomlarini oqlash borasida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilayotgani haqida to‘xtalib, “...hali bundaylar qancha? Vatanparvar insonlarning sha’nini tiklashga qaratilgan ezgu ishlarni davom ettirish kerak” deya ta’kidlagan edi [1]. Darhaqiqat, arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarga asoslanib aytish mumkinki, nohaqlik qurboni bo‘lgan minglab vatandoshlarimiz taqdiri hali-hanuz ochiqlangani yo‘q. Ana shulardan biri sovet tuzumining qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan, “Milliy Ittihod” tashkilotining Namangan filiali faollaridan Muhiddin Shohimardonovdir. Uning faoliyati va taqdiri haqida yaqin davrlargacha “maxfiy” tamg‘asi bilan saqlangan arxiv hujjatlariga asoslanib fikr yuritamiz.

Material va usullar

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati arxivi fondlarida saqlanayotgan P-23503 raqamli hujjat (Shog‘ofur Shomansurovning ayblov ishi), P-24627 raqamli hujjat (Muhiddin Shohimardonovning ayblov ishi), P-25915 raqamli hujjat (Toji Rahmonovning ayblov ishi), P-22939 raqamli hujjat (Qosimov G‘ofurning ayblov ishi)larga tadqiqot materiali sifatida tayanildi.

Qo‘yilgan muammoni tadqiq etishda tarixiylik tamoyiliga tayangan holda, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Muhiddin Shohimardonov NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 25-avgust kuni 1233-sonli order bilan Toshkent shahri Oktyabrskiy rayoni Ozod kvartali 2-uyda yashayotganida hibsga olingan. Mahbus anketasida qayd etilishicha, u 1895-yilda Saudiya Arabistoni Madina shahrida tug‘ilgan. Keyinchalik uning oilasi Namanganga ko‘chib kelgan. Rus, arab tillarini mukammal egallagani bois avval tilmoch-

lik qilgan, keyinchalik turli lavozimlarda ishlagan, 1919–1933-yillarda partiya a'zosi, 1928–1930-yillarda rayon xalq sudyasi bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik Baliqchi rayonida agronomlik qilgan. Oilasi: ayoli Salomat 32 yoshda, qizi Nodira 15 yoshda, o'quvchi, o'g'li Tolib 8 yoshda bo'lgan [2].

1937-yil 27-avgust kuni NKVD 4-bo'lim tezkor vakili Miroshnichenko tomonidan mahbus Muhiddin Shohimardonovga nisbatan quyidagi ayblov xulosasi tayyorlangan: Muhiddin Shohimardonov (42 yosh, Namangan shahridan, partiyasiz, diniy ulamo oilasidan, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi, Baliqchi rayonida yer ishlari bo'limida faoliyat ko'rsatgan):

1. 1920–1929-yillarda "Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkilotining Namangan filiali rahbarlaridan biri sifatida faoliyat olib borgan.

2. Shu yillar orasida o'q otish qurol va aslahalarini yig'ish, ularni bosmachilar shaykasiga yetkazish bilan shug'ullangan.

3."Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkilotiga yangi a'zolarni jalb qilgan.

4. Trotskiychi o'ng og'machilar aksilinqilobiy blokining faol a'zosi sifatida sovet rejimiga qarshi targ'ibotlar olib borgan.

5. Xalq xo'jaligining yirik sohalari bo'lgan qishloq xo'jaligi va chorvachilikni izdan chiqarishga doir aksilinqilobiy harakatlar olib borgan [3].

Yuqoridagi jinoyatlarni sodir etishda ayblangan M.Shohimardonovning yashab turgan uyida tintuv o'tkazilganda, uni ayblashga doir birorta ham ashyoviy dalil topilmagan. Shunday bo'lsa-da, jazo organlari xodimlari mahbus M.Shohimardonovga nisbatan qiynoq va azob berish usullarini qo'llab, unga qo'yilayotgan ayblarni tan olishga majburlagan. 1937-yil 29-avgust kuni M.Shohimardonov so'roq qilingan. Tergov jarayonidan ayrimlarini keltirib o'tamiz:

Savol: Siz aksilinqilobiy faoliyatni qachon boshlagansiz?

Javob: Inqilobga qadar musulmon mehnatkashlari soyuziga Zaynitdinqori Nasritdinov, Inomjon Nizomboyev, Shog'ofur Shomansurov, Solixon Xo'jayev Oxundada bilan birga men ham a'zo bo'lib kirdim. 1920-yilda Namangandan Zuhriddin Nuritdinov, Muhammad Rizayev va Ergash Toshboyev Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etish uchun Bokuga borishgan edilar.

Syezddan Nuritdinov va Rizayevlar antisovet kayfiyatda qaytishgan va 1921-yildan astoydil targ'ibotga kirishishgan. Nasritdinov meni "Milliy ittihod"-ga a'zo bo'lishga undagan. Bu tashkilotda Turkiston MIK raisi Inomjon Xidiraliyev, O'zbekiston SSR Yustitsiya vaziri va bosh prokurori Bo'taboy Dadaboyevlar borligini aytdi. Men tashkilotga a'zo bo'lishga rozilik bildirdim.

Savol: Xidiraliyev, Dadaboyevdan tashqari, ushbu tashkilot a'zolari orasida yana kimlarni bilasiz?

Javob: Quyidagilar tashkilot rahbari va faol a'zolari edi: Nizamboyev Inomjon – Namangan shahar partiya komiteti sekretari, hozir hibsda.

Qosimov G'ofur – Namangan uyezd – shahar partiya komiteti mas'ul kotibi bo'lgan, hozirda Toshkentda "O'zbek Ipaktresti" direktori.

Shomansurov Shog'ofur – Chust rayonida mas'ul lavozimlarda ishlasa-da har doim Namangan shahrida edi. Hozirda "Chirchiqstroy"da ishlaydi.

Nasritdinov Zayniddin – qozining o'g'li, Qur'oni Karimni yod olgan ulamo. "Milliy ittihod" tashkilotining Namangan filiali asoschisi.

Nuriddin Qoriyev – diniy ulamo o'g'li, sobiq yirik savdogarlardan, volost boshqarmasida kotib bo'lgan, bir qancha mas'ul lavozimlarda ishlagan, hozirda Turkmanistonning Ashxobod shahrida ishlamoqda.

Toji Rahmonov – mulla qori, diniy bilim yurti o'qituvchisi, shahar ijroiya qo'mitasida Vaqf bo'limi mudiri bo'lgan, hozirda Namanganda himoyachilar kollegiyasida ishlamoqda.

Usmon Abdurahmonov – yirik savdogarning o'g'li bo'lgan. Namangan ChKda ishlagan, keyinchalik O'zbekiston SSR Oliy Sudi prokurori bo'lgan.

Nasimxon Qosimxonov – Qo'qon muxtoriyati asoschilaridan Nosirxonto'raning yaqin qarindoshi, Namangan shahar ijroiya komiteti raisi bo'lgan, hozirda hibsda.

Muhammad Rizayev Hojibobo – mulla, Namangandagi yirik savdogarlardan biri va men Shohimardonov.

Yana menga ma'lum bo'lgan faollardan: Rahimmirzayev G'ofurhoji, Yuldashqoriyev Abdullajon, Tukmullin Abidulla Maxsum, Akramxonov G'ulom, Lutfullo Olimiy, Mo'minov Rafiq, Dadamatov G'aybulla, Mavlonov Abduvahob, Usmanov Fayzullo.

Savol: "Milliy ittihod" tashkilotining Namangan filialining aksilinqilobiy faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari bo'yicha ko'rsatma bering.

Javob: Men 1922-yilda Turkiston kompartiyasi markaziy ijroiya komiteti va Turkiston ChKga Namangan shahar militsiya boshlig'i Oxundada Solixon Xo'jayev va Namangan shahar partiya komiteti sekretari Inomjon Nizamboyevlarning aksilinqilobiy faoliyati hamda ularning bosmachilar bilan yaqin aloqalariga doir ko'rsatmalar bilan ariza berganman. Tez orada Qo'qondan Namanganga obkom partiya kotibi Xanafiya Burnashev va oblast KK raisi Churakov kelishdi. Ariza partiya yig'ilishida ko'rib chiqildi va meni "guruhbozlik"da ayblashib, partiyadan o'chirishdi.

Ko‘p vaqt o‘tmasdan Solixon Xo‘jayev qo‘lga tushdi va otib tashlandi. Farg‘ona oblast ChKda ishlayotgan akasi Yusufjon bosmachilar tomoniga qochib o‘tadi. Ko‘rsatmalarim o‘z tasdig‘ini topgach, men partiya safiga tiklash bo‘yicha ariza berganimda Xidiraliyev qattiq qarshilik ko‘rsatdi. O‘zKP(b) MK muhokamasida meni “guruhboz”, “jinni”, “aqli zaif”likka chiqarishib, arizamni qaytarib olishimni so‘rashgan. Meni G‘ofur Qosimov va Shomansurov chaqirib, Solixon Xo‘jayev haqida ko‘rsatma berishimni talab qilishdi. Agar ular talabini bajarmasam, meni maxfiy organlarga topshirib yuborishlari bilan tahdid qilishdi va men ular talabini bajardim.

1927-yilda “Qo‘shchi” soyuzi artelida ishlaganimda bir kuni G‘ofur Qosimov meni kabinetiga chaqirdi va u yerda Nizomboyev va Nuritdin Qoriyevlar bor ekan. Nuritdin Qoriyev meni jamoalashtirishga qarshi “tartibsizliklar” chiqarmayotganim bilan koyidi, o‘zi Uychida shunday tartibsizliklar chiqarganini pesha qilib, kambag‘al-batraklar o‘rtasida tartibsizliklar keltirib chiqarishim uchun Qo‘qonga yuborishdi. Meni Farg‘ona oblast partiya komiteti kotibi Abdulla Karimov uyida qabul qildi. Oblast “Qo‘shchi” soyuzi raisi Anvarov menga yirik boylarning ro‘yxatini berdi va ularning yerini xatlovga olmasligimni tayinladi. Bu topshiriqni to‘la bajardim.

1924-yilda Nuritdin Qoriyev menga quyidagi vazifani yuklagan: Axsi Shaxan volosti ijroiya komiteti raisi lavozimiga qayta saylov o‘tkazish vaqtida o‘zining yaqin do‘sti Poshshoxonov Abduqahhorning (qo‘rboshining kuyovi, 1919-yilda jinoyatlari uchun Toshkent turmasida bo‘lgan) ayblarini berkitib turishimni va uning shu lavozimga saylanishini tayinlagan [4].

Mahbus M.Shohimardonovning “Milliy ittihod” tashkiloti Namangan filiali tarkibi va uning faoliyatiga doir ko‘rsatmalari Munavvarqori Abdurashidxonov xotiralarida ham keltirilgan [5].

Shuningdek, uning “18-lar guruhi” deb nomlangan milliy muholifat harakatida faol ishtirok etganligi keyingi tadqiqotlarda ochiqlandi [6].

Tergov jarayonida M.Shohimardonovni aksilinqilobiy faoliyatda aybdor deb topish uchun unga yaqin bo‘lgan va birga ishlagan shaxslardan ko‘rsatmalar olinadi. 1937-yil 17-dekabr kuni Toji Rahmonov (52 yoshda, Namangan shahridan, o‘zbek, dindor oiladan, kasbi – o‘qituvchi, 1931-yilda o‘z lavozimini suiiste’mol qilgani uchun partiyadan o‘chirilgan, keyingi vaqtda himoyachilar kollegiyasida ishlagan) quyidagi ko‘rsatmani bergan: “Muhiddin Shohimardonov 1922-yilda yangiqo‘rg‘on rayon yer ishlari bo‘limida ishlayotgan vaqtida meni yashirin tashkilotga jalb qilgan. Keyinchalik men Nuritdin Qoriyevning ko‘rsatmasi bilan Shog‘ofur Mansurov, Abduhakim Hamidov, Lutfullo Olimiy, Hoshim Odiliylarni tashkilotga jalb qilganman. Tashkilotning faol a’zolaridan birinchi bo‘lib Muhiddin Shohimardonovni aytish mumkin. Guruhning faollaridan yana biri G‘ofur Qosimov, u avval Namanganda go‘sht savdosi bilan shug‘ullangan yirik savdogar bo‘lgan, ayni paytda Toshkentda “Ipakuyushma” tresti boshlig‘i, “Milliy ittihod”ning Namangan filiali prezidiumi a’zolari: 1) Zayniddinqori Nuritdinov, 2) Asror Zayniddinov, 3) Mirzahamid Mirzamahmudov, 4) Muhiddin Shohimardonov, 5) Inomjon Nizomboyev edi [7].

1937-yil 18-dekabr kuni Jiydakapa volosti raisi yordamchisi Abduvali Qirg‘izboyev ham tergov qilingan. U o‘z ko‘rsatmasida Muhiddin Shohimardonov aksilinqilobiy tashkilot faollaridan biri ekanligini hamda bevosita uning targ‘iboti bilan tashkilotga a’zo bo‘lib kirganini aytgan [8].

Muhiddin Shohimardonovning ayblov ishi xulosasini tayyorlashda ayg‘oqchilarning chaquvidan ham foydalanilgan. Masalan, “Kron” laqabli chaquvchi xabari: “1932-yil iyulda yashirin tashkilot faollaridan bo‘lgan Muxtorxon Ma’murxo‘jayev Andijondan Namanganga keladi va o‘sha vaqtda “Zarbdor” kolxozi raisi bo‘lgan Inomjon Nizomboyev, bilan uchrashib, tushlik vaqtida uning uyida mehmon bo‘ladi. Tushlikka Do‘mbog‘ qishlog‘i Chuqur ko‘chasida yashovchi, kolxoz tabelchisi Yunus Otaxo‘jayev, kolxoz hisobchisi Jo‘ra Kamolov va men taklif qilindik. Yig‘ilganlarga qarata Ma’murxo‘jayev shunday dedi: “Men Namanganga shunchaki ish yuzasidan kelmadim, balki bu yerdan kuchli, mard, jasur yigitlarni topish va ularni sovetlar o‘rnatgan mustamlaka tuzumidan o‘zbek xalqini ozod qilishdek sharafli ishga jalb etishdek mas’uliyatli vazifani bajarishga keldim” [9]. 1936-yil 26-noyabr kungi “Muhammadnazar” chaquvi: “1936-yil 24-noyabrda M.Shohimardonov Yangiqo‘rg‘on rayoni Chortoq qishlog‘iga keldi. Erta bilan Lenin qishloq soveti, “Lenin yo‘li” kolxozida bo‘ldi. Antisovet targ‘ibot olib bordi. Bundan tashqari “Boqiyev”, “Mirov” laqabli ayg‘oqchilar ham M.Shohimardonovning aksilsho‘roviy faoliyatiga doir ma’lumotlarni beradi” [10] .

Tergov jarayonidagi ko‘rsatma va ayg‘oqchilarning xabarlariga asoslanib, 1937-yil 21-noyabrida Muhiddin Shohimardonovga quyidagicha ayblov xulosasi tayyorlanadi:

“Shohimardonov Muhiddin 1895-yilda Saudiya Arabistoni Madina shahrida tug‘ilgan. Millati – arab, SSSR fuqarosi, yirik boylardan, taniqli eshonning o‘g‘li, 1925-yilgacha Namangan oblast rayonlarida boylarning yerlarini yashirish bilan shug‘ullangan. Partiyadan o‘chirilgan, so‘nggi vaqtda ishlamaydi. Sudlanmagan. Shohimardonov 1920-yildan 1930-yilgacha “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining Na-

mangan filiali prezidiumini a’zosi sifatida faollik bilan sovet davlatiga qarshi kurash olib borgan, Dadaboy qo‘rboshining bosmachilar to‘dasiga qurol-aslahalar yetkazib bergani uchun qo‘rboshidan ot sovg‘asini olgan. “Qo‘shchi” soyuzi raisi sifatida yig‘ilishlarda dehqonlar orasida aksilinqilobiy targ‘ibotlar olib borish bilan birga boylar va dindorlar manfaatini himoya qilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining yashirin yig‘ilishlarini o‘tkazish, tashkilotga yangi a’zolarni jalb qilish bilan muntazam shug‘ullanib kelgan. 1936-yilda taniqli aksilinqilobchilar Toji Rahmonov va Asror Zayniddinovlar uyida o‘tkazilgan yig‘ilishda “sovet hukumati O‘zbekistonda ochiqdan ochiq mustamlaka siyosatini olib bormoqda, biz bunga qarshi kurashib, mustaqil burjua davlatini tuzishimiz kerak. Buning uchun guruhga yangi a’zolarni ko‘proq jalb qilishimiz kerak” deb, mavjud tuzumga qarshi targ‘ibotlar olib borgan. M.Shohimardonov O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-qismi va 67-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etgani uchun O‘zNKVD uchligi ixtiyoriga yuborilsin.

Ma’lumot uchun: M.Shohimardonov 1937-yil 25-avgustdan buyon Toshkent turmasida saqlanmoqda.

Katta leytenant Miroshnichenko 4-bo‘lim boshlig‘i Agabekov, 4-bo‘lim yordamchisi Matveyev” [11].

Mayor Leonov tasdiqlagan bu ayblov xulosasiga ko‘ra NKVD uchligi 1937-yil 27-noyabrda Muhiddin Shohimardonovni otuvga hukm qilgan. Arxivdagi mavjud 7322 raqamli AKTda uni 1937-yil 21-dekabrda otib tashlangani qayd etilgan [12].

Muhiddin Shohimardonovning taqdiri uzoq vaqt oilasi va yaqinlaridan sir saqlangan. O‘sha yillarda sakkiz yoshda bo‘lgan Tolibjon Muhiddinov otasining taqdiriga doir ma’lumotga ega bo‘lish ilinjida tegishli organlarga 3 marotaba ariza bilan murojaat qilgan.

Dastlab 1956-yil 13-iyunda SSSR davlat xavfsizlik xizmati komiteti raisi nomiga quyidagi ariza bilan murojaat qilgan:

“Namangan viloyati Chortoq rayoni Lenin nomli qishloq soveti hududidagi Voroshilov kolxozida yashovchi Tolibjon Muhiddinovdan

ARIZA

Otam Shohimardonov Muhiddin 1895-yilda Saudiya Arabistoni Madina shahrida tug‘ilgan. Taxminan, 1918-yilda kompartiyaga a’zo bo‘lgan yildan boshlab “bosmachi”likni tugatishda ishtirok etgan, keyinchalik boy unsurlarga qarshi “quloq” qilish kampaniyasining faol a’zosi sifatida kolxozlar tuzishda jonbozlik qilgan. Otam o‘z davrining jamoatchi va siyosiy faoli bo‘lgan. Otam NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 25-avgustda kech soat 20:00 da Toshkent shahridagi yashab turgan uyimizda hibsga olingan. Onamning aytishicha, bu vaqtda otam Toshkent Ot parvarishlash zavodi direktori bo‘lgan ekan. Onam qamoqxonaga otam ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetti oy davomida kiritib turgan. Yettinchi oyga kelganda otamning boshqa konslagerga yuborilganini aytishib, posilkani qaytarib berishgan ekan. Oradan 19 yil o‘tdi. Sizdan iltimos, otam nima sababdan qamoqqa olingani va otamning qaysi ayblari uchun qancha muddatga hukm etilgani hamda keyingi taqdiri haqida ma’lumot bersangiz” [13].

Arizaga javob xati Chortoq rayoni ichki ishlar bo‘limiga yuboriladi. 1956-yil 28-iyul kuni T.Shohimardonov rayon ichki ishlar bo‘limiga chaqirtiriladi va quyidagi ma’lumotnoma bilan tanishtirilgan: “M.Shohimardonov “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning faol yetakchilaridan biri bo‘lgani uchun NKVD uchligi tomonidan 1937-yilda 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan. U 1942-yil 21-dekabrda konslagerda Sarkoma kasaliga chalinib vafot etgan” [14]. Tolib Shohimardonov otasi haqida ma’lumotga ega bo‘lganligi haqida tuman ichki ishlar bo‘limi serjanti Farxutdinovga tilxat ham yozib beradi [15].

Ma’lumotnomadan hatto nusxa ham ola olmagan Tolib Muhiddinov yana bir umidda 1957-yil 6-dekabrda SSR Ministrlar Soveti huzuridagi davlat xavfsizlik xizmati boshlig‘i nomiga ikkinchi bor ariza bilan murojaat qiladi. Arizada mazkur tashkilotning 1956-yil 10-iyundagi 10/1993 sonli javob xatida otasi M.Shohimardonovning 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilingani, 1942-yilda jazoni o‘tash joyida sarkoma kasalligi bilan vafot etganidan xabar topgani uchun ularga tashakkurnoma bildirgan. Ariza so‘ngida quyidagilarni bayon qilgan: “Biroq, men xohlar edimki, otam qaysi jinoyatlari uchun qamoqqa olingan? Ayblov asoslimi yoki uyushtirilganmi? Shularni bilishni xohlayman. Balki, shunchaki Beriya bo‘htonining qurboni bo‘lgandir? Shuningdek, otam oqlanganmi? Agar hali ham aybdor deb hisoblanayotgan bo‘lsa, uni oqlash uchun yetarli ma’lumotlar bormi? Sizlardan o‘tinib so‘rayman, so‘rovlarimga to‘liq javob bersangizlar” [16].

Ariza yuzasidan berilgan javob xatida ham M.Shohimardonovning 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilingani, 1942-yilda jazoni o‘tash joyida vafot etgani haqidagi ma’lumot keltirilib, marhum M.Shohimardonovning ishi qayta ko‘rib chiqilayotgani aytilgan [17].

1964-yil 11-avgustda Andijon viloyati Yangiqo‘rg‘on rayoni Navoiy kolxozi “Pobeda” uchastkasida yashovchi Salomatxon Shohimardonova (M.Shohimardonovning turmush o‘rtog‘i) O‘zbekiston SSR davlat xavfsizlik xizmati arxivi direktori nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Unda turmush o‘rtog‘i 1958-yil 25-iyulda Oliy sudning 1–24 sonli qarori bilan oqlangani bois o‘z nafaqasini tiklash uchun zarur bo‘lgan hujjat, ya’ni turmush o‘rtog‘ining mehnat faoliyati haqida ma’lumot berishlarini so‘ragan. Shuningdek, turmush o‘rtog‘ining o‘limini tasdiqlovchi biror hujjat mavjud bo‘lsa, undan nusxa berishlarini talab qilgan [18]. Biroq tegishli organlar bu arizaga hech qanday javob berishmagan.

1968-yil 25-iyun kuni o‘sha vaqtda Namangan shahar G‘ijduvon ko‘chasi 1-proyezd 8-uyda yashagan Tolibjon Shohimardonov uchinchi bor O‘zbekiston SSR davlat xavfsizlik xizmati raisiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizada otasining 1937-yilda nohaq hibsga olinishi, 1957-yilda Oliy sud tomonidan oqlangani ta’kidlangan. Hibsga olingan vaqtida u juda yosh bola bo‘lgani bois, tintuv vaqtida musodara qilingan buyumlar bilan birga otasiga tegishli hujjatlar ham olib ketilganini aytib, shu hujjatlarni qaytarib berishlarini talab qilgan. Uning arizasiga 1968-yil 3-iyul kuni javob xati yuboriladi va xatda tintuv vaqtida musodara qilingan buyumlar va hujjatlar surishtiruv davomida topilmaganini aytilgan.

Hujjatlarni o‘rganish davomida M.Shohimardonovning aybsiz ekanini isbotlash oson kechmagani yoki shunchaki oqlanganlar safiga kiritib qo‘yishmagani ma’lum bo‘ldi. Uni oqlashga ham gumon bilan qaralgani bois Moskvadan SSR Oliy sudining maxsus vakili Piotrovich Namanganga keladi, shahar partiya komiteti binosida M.Shohimardonovni yaqindan bilgan fuqarolarni chaqirib tergov o‘tkazadi. Tergov jarayonidan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

1955-yil 19-fevral kuni Namangan shahar partiya komiteti binosiga Namangan shahri Gijduvon ko‘chasi 1-tor ko‘cha 1-uyda yashovchi 75 yoshli otaxon Usmonov Fayzullo chaqirtiriladi. U 1918-yildan partiya a’zosi, “To‘quvchilar uyushmasi” raisi, 1930-yilda 5 yilga qamalgan, keyin maktabda o‘qituvchilik qilgan. Biroq NKVD uchligi qarori bilan 10 yilga mehnat tuzatish lageriga surgun qilingan, 1943-yilda lagerdan qaytib, ustachilik bilan shug‘ullangan. Tergov davrida M.Shohimardonovning “Milliy ittihod” tashkiloti faol a’zosi bo‘lganini aytgan va 10 nafar faol a’zolarni sanab bergan. “Asli namanganlik Usmon Abdurahmonov Oliy sud prokurori lavozimida ishlaganida bir guruh aksilinqilobchilarni uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish hukmini 8 yilga kamaytirgani uchun omma orasida u “Usmon 8” laqabini olgan. O‘zi ham shu tashkilot a’zosi bo‘lgan edi” [19] deb ko‘rsatma bergan otaxon.

Xuddi shu kuni Namangan shahri Frunze ko‘chasi 4-proyezd 4-uyda yashovchi 59 yoshli, maxsus pensioner, KPSS a’zosi, ilgari sudlanmagan Holiqulov Mirza Naqib so‘roq qilinadi [20]. U o‘z ko‘rsatmasida M.Shohimardonovning aksilinqilobiy faoliyatiga doir ma’lumotga ega emasligini aytgan.

1955-yil 20-fevral kuni Namangan shahri Vorovskiy ko‘chasi Komsomol mahallasi 38-uyda yashovchi 67 yoshli Usmon Ibrohimov ham so‘roq qilinadi. U oddiy kolxozchi, partiyasiz, 1933-yilda Namangan xalq sudi tomonidan JK 140-moddasiga binoan 10 yilga qamalgan. Tergovda u: “Uychi rayoni Stalin nomli kolxozda ishlagani, 1919-yilda 6 oy davomida Madaminbek qo‘rboshining kotibi bo‘lgani, 1919–1922-yillarda Omonpolvon qo‘lida ishlagani”ni aytib, “Milliy ittihod”-ning Namangandagi filiali a’zolarini sanab o‘tgan: Fayzullo Usmanov – Namangan shahar 4 maktab mudiri, Asror Zaynitdinov – shahar ijroiya komiteti kotibi, Nasimxon Qosimxanov – ChK Farg‘ona bo‘limi raisi, Lutfullo Olimiy – “Farg‘ona” gazetasi muharriri, sudlangan (bu ko‘rsatma berilayotgan vaqtda Namangan rayoni Toshbuloq qishloq sovetida yashagan), Otamirzayev Muhammad Ibrohim, ilgari sudlanib, qamalgan, hozir qamoqdan qaytib Namangan shahrida yashaydi, Mulla Xoji Niyozxon – Karimboyev Mulla Xojining o‘g‘li, Andijonga ketib qolgan, Rahmonov Toji, Tukmullin Abidullin – Namangan shahar maorif mudiri, Rahimmirzayev G‘ofurjon – samarqandlik savdogar, Otamirzayev Ibrohim – yirik savdogar, choyfurush, Qoriyev Nuritdin, Solixonhoji Oxundada va boshqalar – jami 30 nafar a’zo bo‘lganini aytgan [21].

1955-yil 20-fevral kuni Otamirzayev Muhammad so‘roqqa tortilgan, u 1890-yilda tug‘ilgan, Namangan shahri Karl Libknext ko‘chasi 6-uyda yashagan, ko‘zi ojiz bo‘lgani uchun ishlamagan, 2 marta sudlangan, 1929-yilda OGPU uchligi tomonidan O‘zSSR JK 66-moddasi bilan 5 yilga ozodlikdan mahrum etilgan, 1934-yilda muddatidan oldin ozod qilingan, partiyasiz, 1946-yilda Namangan oblast sudi tomonidan 146-modda bilan 8 yilga ozodlikdan mahrum qilingan, biroq aybsiz ekanini isbot qiluvchi hujjatlar asosida 3 yilda qamoqdan ozod qilingan [22].

1955-yil 27-mart kuni Lutfullo Olimiy so‘roq qilinadi [23]. U 1930-yilda OGPU uchligi tomonidan 10 yilga axloq tuzatish lageriga surgun qilingan. 1937-yilda muddatidan oldin qaytib, Namangan rayon Kichik Qurama massivi Lenin nomli kolxozning Toshbuloq qishlog‘ida yashagan. U o‘z ko‘rsatmasida “Milliy ittihod” a’zolarini sanab o‘tgan va Muhiddin Shohimardonov haqida alohida to‘xtalib, uning otasi obro‘li diniy ulamo va Namangan shahridagi Sardoba madrasasining mudarrisi bo‘lganini aytgan.

Mazkur “ayblov ishi”da Muhiddin Shohimardonov bilan shunchaki tanish bo‘lgan shaxslar ham qatag‘on domiga tortilgani aniqlandi. Mo‘minov Rafiq

1900-yilda Namangan shahrida tug‘ilgan, sovet partiya maktabida o‘qituvchilik qilgan. Tukmullin Abidullin 1883-yilda Namanganda tug‘ilgan, millati – tatar, shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli maktabda o‘qituvchilik qilgan. Bu ikki shaxs aksilinqilobiy faoliyat olib borishda ayblanib, O‘zbekiston SSR Oliy sudi sayyor sessiyasining 1938-yil 16-fevraldagi hukmiga ko‘ra 10 yilga ozodlikdan mahrum qilingan [24].

G‘iyosov Sirojiddin 1900-yilda Namanganda tug‘ilgan, Namangan shahar “O‘zbektorg” magazini mudiri bo‘lgan, u 1927-yilda o‘z xonadonida navbat bilan o‘tkaziladigan mehmondorchilik tadbiri – “gap” beradi. Unda ishtirok etgan Rahimmirzayev G‘ofurjon ko‘rsatmasiga ko‘ra, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zolaridan Mahmudov Nasim, Isroilov G‘ulom, Mo‘minov Rafiq sovet hukumatini obro‘sizlantiradigan suhbatlar qilgan. Shu sababdan S.G‘iyosov 1937-yil 22-avgustda qamoqqa olingan. 1937-yil 23-oktyabrda NKVD uchligi qarori bilan 10 yilga mehnat tuzatish lageriga surgun qilingan. Uning xotini NKVD rahbariyatiga ariza yozadi va turmush o‘rtog‘ining beayb ekanligini isbotlash uchun xonadonida o‘tkazilgan suhbatlarda antisovet ruhida gap bormaganini bayon qiladi. Biroq S.G‘iyosovga chiqarilgan hukm o‘z kuchida qoldiriladi [25].

M.Shohimardonov jinoiy ishini o‘rganish asnosida hujjatlar qalbakilashtirilgani, ayblanuvchiga doir ko‘rsatmalar yolg‘on ekanligi ma’lum bo‘ldi. 1956-yil 25-mart kuni Namangan oblast harbiy prokurori Monogorov, xavfsizlik xizmati leytenanti Dadaboyev tomonidan berilgan ma’lumotnomada [26] ayrim hujjatlarni soxtalashtirgani uchun NKVD 3-bo‘lim boshlig‘i vazifasini sobiq bajaruvchisi I.P.Lisisin 1939-yilda RSFSR JKiga ko‘ra 3 yilga, 4-bo‘lim sobiq boshlig‘i L.A.Agaboyev 1940-yilda 5 yilga, xodim V.F.Sorskiy 1940-yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum qilingani ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston SSR Oliy sudining Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 1958-yil 25-iyulda Oliy sudning 1–24 sonli qarorida O‘zSSR NKVDsining 1937-yil 27-noyabrdagi Shohimardonov Muhiddinga nisbatan chiqarilgan qarorini bekor qilgan va to‘plangan dalillarning yetarli emasligi tufayli tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish to‘xtatilgan. Oqibatda Shohimardonov Muhiddin reabilitatsiya qilingan, ya’ni oqlangan [27].

Xulosa

Mustabid tuzum Muhiddin Shohimardonov kabi xalqimizning qanchadan-qancha ajoyib va peshqadam farzandlarini qatag‘on etdi, ularga qo‘shib millatparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat singari buyuk insoniy fazilatlarni xalqimiz yuragidan siqib chiqarishga urindi. Bugun Yangi O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlari xotirasining e’zozlanishi va abadiylashtirilishi nafaqat tarixiy adolat, balki o‘zbekona ma’naviyat va axloq-odobning ham tiklanishiga kafolat bo‘lib xizmat etadi.

Adabiyotlar:

1. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 31 август куни “Қатағон қурбонлари хотираси” музейидаги ташрифи чоғидаги нутқидан // Халқ сўзи, 2022 йил 31 август.

2. Ўзбекистон Республикаси давлат хавфсизлик хизмати архиви (кейинги ўринларда ЎзР ДХХА) П-24627-иш, 18–19-варақлар.

3. ЎзР ДХХА, 24627-иш, 22-варақ.

4. ЎзР ДХХА, 24627-иш, 33–35-варақлар

5. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар /Таҳрир ҳайъати: О.Шарафиддинов, Н.Аминов, Б.Қосимов ва бошқ. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 304 б.

6. *Убайдуллаев Ў.Қ.* Ўзбекистонда миллий арбобларнинг қатағон қилиниши // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации. – 2023. – № 9. – В. 128–143.

7. ЎзР ДХХА, П-22939-иш, 101-варақ.

8. ЎзР ДХХА, П-25915-иш, 68-варақ.

9. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 37-варақ.

10. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 42-варақ.

11. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 48–50-варақлар

12. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 88-варақ.

13. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 89-варақ.

14. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 126-варақ.

15. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,127-варақ.

16. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,128-варақ

17. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 139-варақ.
18. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,132-варақ
19. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,134-варақ.
20. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,136-варақ.
21. ЎзР ДХХА, П-23503-иш,138-варақ.
22. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 142-варақ.
23. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 146-варақ.
24. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 148-варақ.
25. ЎзР ДХХА, П-24627-иш,187-варақ.
26. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 183-варақ.
27. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 190-варақ.
28. ЎзР ДХХА, П-24627-иш, 188-варақ.

JADID MUHIDDIN SHOHIMARDONOV`S ACTIVITIES AND FATE

Uktamjon K. Ubaydullayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 5(89). 16-23.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *“Jadidism”, “National Union”, Muhiddin Shohimardonov, Bolshevik Party, national independence, colonialism, accuser, defendant, repression.*

This article provides the first comprehensive scholarly examination of the life, socio-political activities, and tragic fate of Muhiddin Shohimardonov, a representative of the Jadid reformist movement who became a victim of Soviet political repression during the period of the Great Terror. Shohimardonov’s ancestors originated from the Ferghana Valley; however, he was born in Medina (Saudi Arabia) and later relocated with his family to Namangan, where his intellectual formation and public activities took place. The study contextualizes his biography within the broader framework of Jadidism, emphasizing its goals of national awakening, educational reform, and resistance to colonial domination in early twentieth-century Turkestan.

The research is based on previously unexplored archival criminal-investigation files, intelligence reports, and materials from the contemporary periodical press, which are introduced into academic circulation for the first time. These sources allow for a detailed reconstruction of Shohimardonov’s ideological views, organizational contacts, and movements, as well as the methods employed by Soviet security bodies to monitor and suppress Jadid intellectuals. Particular attention is paid to the role of informants and undercover agents whose testimonies formed the basis of the indictment. Reports submitted under pseudonyms such as “Kron,” “Bakiyev,” and “Mirov” are critically analyzed to demonstrate how accusations of “anti-Soviet agitation” and “counter-revolutionary activity” were systematically fabricated within the framework of Stalinist repression.

The article examines specific episodes cited by the investigative authorities, including Shohimardonov’s meetings with alleged members of underground nationalist circles and his visits to several localities in the Namangan and Yangikurgan districts. These actions, interpreted by Soviet officials as evidence of hostile political intent, are reassessed in light of Jadid reformist practices and the broader sociopolitical realities of the period. The analysis reveals a clear discrepancy between the official charges and the actual aims of Shohimardonov’s activities.

By reassessing Soviet-era investigative materials through a critical historiographical lens, the study contributes to a deeper understanding of the mechanisms of political repression and the suppression of indigenous intellectual elites in Central Asia. The findings highlight the necessity of re-evaluating repressive narratives and restoring historical justice to Jadid figures whose contributions were marginalized or distorted by totalitarian discourse.

References:

1. (2022) Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 31-avgust kuni “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyidagi tashrifi chog‘idagi nutqi [From the speech of President Sh.M. Mirziyoyev during his visit to the “Memorial of Repression Victims” Museum on August 31]. *Xalq so‘zi*. August 31.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi [Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan (ASSSRU)]. File 24627, pages 18-19.
3. ASSSRU, File 24627, sheet 22.
4. ASSSRU, File 24627, pages 33-35.
5. Abdurashidkhanov, M. (2003) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. Tashkent: Ma’naviyat.
6. Ubaydullayev, O‘. (2023) O‘zbekistonda milliy arboblarning qatag‘on qilinishi [Repression of national figures in Uzbekistan]. *Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovacii. No* 9. Pp.128-143.
7. ASSSRU, File P-22939, sheet 101.
8. ASSSRU, File P-25915, sheet 68.
9. ASSSRU, Case P-24627, sheet 37.
10. ASSSRU, Case P-24627, sheet 42
11. ASSSRU, Case P- 24627, pages 48–50.
12. ASSSRU, Case P-24627, sheet 88.
13. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 89.
14. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 126.
15. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 127.
16. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 128.
17. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 139.
18. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 132.
19. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 134.
20. ASSSRU, Case P- 23503, sheet 136.
21. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 138.
22. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 142.
23. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 146.
24. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 148.
25. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 187.
26. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 183.
27. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 190.
28. ASSSRU, Case P- 24627, sheet 188.

Muallif haqida ma’lumot:
UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com